

TURLI GENOTIPDAGI QORAKO'L ZOTLI QO'ZILARINING CAST GENI BO'YICHA O'SISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Urinboyeva Maftuna Maxmudjonovna

Qorako'l qo'ylari seleksiyasi bo'lim mudiri

*Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot
instituti*

Kalit so'zlar: qorako'l, allel, CAST, gen, gomozigota, geterozigota, tana o'lchamlari, tirik vazn, indeks.

Ключевые слова: каракульской порода, овец, аллель, CAST, гены, гомозигота, гетерозигота, промеры тела, живой вес, индекс.

Kirish O'zbekiston qorako'l qo'y zotining vatani hisoblanib, dunyoning qorako'l qo'ylari urchitiladigan boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq bu yerda turli rang, rangbarangliklar va gul tiplaridagi qorako'l qo'ylari urchitiladi. Hozirgi vaqtda qorako'l qo'ylarini urchitish cho'l mintaqalari resurslaridan samarali foydalanishning yagona, iqtisodiy jihatdan asoslangan va maqsadga muvofiq yo'li sifatida qaralmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida», «...Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5-2 barobarga oshirish, chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirish» kabi muhim vazifalar belgilangan. Qorako'lchilikni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy masala bo'lib, sohada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishning yaqin yillarga mo'ljallangan ustivor yo'nalishlarini aniqlash uning taraqqiyotini belgilaydigan asosiy mezon hisoblanadi. Bu borada qo'ylarni tanlashning samarali yo'llarini aniqlash, progressiv juftlash turlarini qo'llash muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qorako'lchilikda mahsuldorlikni seleksiyon-genetik jihatdan baholash katta ahamiyat kasb etib, dolzarb muammo hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani "Bobotog"

suri” MChJ xo‘jalikda urchitilayotgan turli genotipga ega bo‘lgan qorako‘l zotli qo‘zilarining o‘shish va rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Tajriba obekti va usullari. Tajribada CAST geni bo‘yicha MM va MN allellari asosida 17 bosh qo‘zilarning o‘shish va rivojlanish xususiyatlari keltirilgan.

Tajriba hayvonlarining tirik vazni platforma tarozisida aniqlanildi. Tana o‘lchamlari o‘lchov asboblari yordamida aniqlanib, tana indeksleri xisoblab chiqildi.

Olingan natijalar va ularning taxlili: Turli xil allellarga ega bo‘lgan qorako‘l zotli qo‘zilarning tirik vazni 1- jadvalda keltirilgan

1-Jadval

CAST geni uchun qorako‘l zotli qo‘zilarning o‘shish dinamikasi, kg (n=18)

Ko‘rsatkichlar	Genotip	
	MM	MN
Tug‘ilganda	4,2±0,07	4,3±0,05
21 kunlik	8,7±0,13	9,0±0,15
4,5 oylik	25,5±0,22	26.1±0,28
6 oylik	30,2±0,18	31,9±0,44

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki qo‘zilarni turli genotiplari ontogenez davrida yosh hayvonlarning o‘shishiga turlicha ta’sir qiladi. Jumladan MM gomozigotali allelga ega bo‘lgan qo‘zilar MN geterozigotali allelga ega bo‘lgan qo‘zilardan 0,1 kg kichik tirik vaznga ega ekanligini ko‘rish mumkin, xuddi shunday ko‘rsatkichlarni 21 kunlikda 0,3 kg; 4,5 oyligida 0,6 kg va 6 oyligida 1,7 kg tirik vazni kichik ekanligi aniqlandi.

Tana tuzilish o‘lchamlari hayvonning ekstererini to‘liq tavsiflamaydi. Shuning uchun amaliyotda tana tuzilish indekslaridan keng foydalaniladi. Tajribadagi qo‘zilarning tug‘ulgandan to 6-oylikgacha bo‘lgan davr mobaynidagi tana tuzulish indeksleri hisoblandi.

2-Jadval

CAST geni uchun qorako‘l zotli qo‘zilarning tana tuzilish indeksleri, %

Davrlarda	Uzunoyoqlilik		Cho'zinchoqlilik		Ko'krak		Zichlik		Suyakdorlik	
	MM	MN	MM	MN	M	M	MM	MN	MM	MN
Tug'ilganda	63,2	63,0	93,7	93,7	66,2	66,0	107,6	107,3	15,6	16,3
21-kunlik	55,2	51,5	87,2	88,1	66,8	66,4	120,8	119,8	16,5	16,6
4.5 oylik	53,8	53,4	96,8	97,0	71,5	72,2	120,3	122,1	13,7	13,9
6-oylik	54,4	54,8	91,1	91,8	78,3	77,7	136,5	141,5	13,3	13,8

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gomozigotali va geterozigotali alellarga ega bo'lgan qo'zilar qorako'l qo'y zotiga ega bo'lgan talablarga to'g'ri keladi. Ammo uzunoyoqlilik, suyakdorlik kabi indekslar yosh o'tishi bilan kamayib boradi. Buning sababi shundaki, qo'zilar odatda uzunoyoqli bo'lib tug'ulgadi, ammo yosh o'tishi bilan cho'ziluvchanlik, ko'krak va semizlik indeksleri bo'yicha farq kuzatilsada u ishonchli emas.

Xulosa Tadqiqot natijalari qorako'l qo'zilarni turli genotipdagi ontogenez davrida qo'zilarni o'sish va rivojlanishiga turlicha ta'sir etishini ko'rsatadi. CAST geni bo'yicha MN genotipi o'zining go'sht ko'rsatkichlarining ustunligi bilan MM genotipidan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR

1. “Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli farmoni. Toshkent 2022-yil 28-yanvar lex.uz
2. «Qorako'lchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4420sonli qarori. Toshkent. 2019 yil 16avgust. lex.uz
3. Шацкий А.Д., Кравцевич В.П. “Овцеводство” Учебно пособие. Минск, 2016

год.

4. Асамов С.А., Валиев Р.Г. Селекционно-племенная работа с каракульскими овцами черной окраски. Тр. ВНИИК. Самарканд. 1975. 5-8 с.
5. Ашрати А.С. К Экотипичности черных каракульских овец Афганистана. Автореф.канд.дисс. Душанбе. Отд. биол. АН Тадж. ССР. 1967. 18 с.
6. Bazarov S.R., Yorqulov X.N. Har xil rangbaranglikdagi sur qo‘zilar ranggining sifat ko‘rsatkichlari. “Cho‘l –yaylov chorvachiligini rivojlantirish va cho‘llanishning oldini olishning ilmiy-amaliy asoslari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand. 2019. 73-74 b.
7. Ерохин А.И. Овцеводство / А.В. И. Ерохин, В. И. Котарев, С. А. Ерохин - Воронеж: ФГБОУ ХПИ Воронежского ГАУ, 2014.-с. 450
8. Сулейманова, М. К., Ризаева, Д. Т., & Бошмонов, С. С. (2023). Влияние молочной продуктивности каракульских овец разной окраски на живой вес и прирост ягнят. *Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов*, 1(1), 127-129.